



FROM THE EXPERIENCE OF USING MEDIA EDUCATION RESOURCES IN COGNITIVE LEARNING

Khasanova Sh.B. Navoi

VXTXQTMOHM, Docent, p.f.f.doctory

Pulotov A.M. Navoi

VXTXQTMOHM, Associate professors, p.f.n.

ABSTRACT

This article describes the experience of using media educational resources in cognitive learning

Keywords: cognitive, mediatalim, verbal, visual, virtual

Mamlakatimizda zamon talabiga mos yuksak intellektual salohiyatlari, zamonaviy bilim va malakaga ega, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun beqiyos imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu borada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalari hisoblanmish – mediadan ta’lim jarayonida foydalanishning istiqbolli yo‘nalishlaridan keng foydalanish yo‘lga qo‘ymoqda. Ta’lim jarayonida media, ya’ni, internet, televideenie, radio, kino, telefon, elektron darslik, elektron qo’llanmalar, virtual laboratoriya va boshqa vositalardan foydalanish o‘z samarasini ko‘rsatmoqda. Dunyo bo‘ylab ko‘plab maktablarda bolalarning bilim olish usullarini yaxshilash uchun kognitiv o‘qitish jarayoniga murojaat qilishmoqda. kognitiv o‘qitishning maqsadi odamga turli xil sharoitlarda ma'lumot berish usulini takomillashtirishdir. Kognitiv o‘qitishda bolalar o‘qituvchini passiv tinglash va ma'lumotni yodlash o‘rniga dars jarayonida berilgan topshirilarni bajarish va yangi bilimlarni bilganlari bilan bog’lash orqali o‘rganadilar

1982 yilda qabul qilingan YUNESKO deklaratsiyasida “Bolalar va kattalar uch (verbal, vizual va audiovizual) tizim bo‘yicha savodxonlikka ega bo‘lishi shart” ekani ta’kidlanganini hisobga olsak, jarayonda bu uch omil bir-birini to‘ldirib borishiga mediata’lim orqali erishish mumkinligiga amin bo‘lamiz. Biologiya darslarida kognitiv o‘qitish jarayonini tashkil qilishda mediata’lim resurslaridan samarali foydalanilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalarida mediata’lim muammolari va talabalarning mediakompetentligini rivojlanirish sohasida A.V.Feodorov keng qamrovli izlanish olib borgan.

Ta’lim tizimida o‘quv jarayonini tashkil qilishning sifat ko‘rsatkichlari bo‘yicha jahon andozalari darajasiga ko‘tarish uchun darslar jarayonida elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, internet tarmog‘idan foydaanish asosida darslarni tashkil qilish muhimdir.

O‘quv virtual laboratoriya - bu yakunlangan dasturiy mahsulot bo‘lib, uning o‘ziga xos xususiyati avtomatlashtirilgan hamda loyihalashtirish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan katta dasturli tizimlarni loyihalashtirishning zamonaviy kontseptsiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Virtual o‘quv laboratoriyasida faqatgina virtual asboblar emas, balki virtual o‘quv xonalari texnik ob’ektlar loyihasi, matematik va imitatsion modellash tizimlari, amaliy dasturlar o‘quv va ishlab chiqarish paketlarini o‘z ichiga oladi. Virtual laboratoriyalarni yaratishda asosiy e’tibor odatda matematik modellash, o‘rganilayotgan jarayon yoki ob’ektlar optimallashtirish va hisob ishlariga qaratiladi. Ob’ektga yo‘naltirilgan dasturlashni o‘qitishda juda qo‘l keladigan Crocodile ICTning oddiy interfeysi va blok sxemalari yordamida yaratilayotgan dastur orqali har bir buyruqni animatsiya ko‘rinishda tasvirlash mumkin. 9-sinf dasturidan o‘rin olgan laboratoriya mashg‘ulotlari asosida virtual laboratoriyalarni tashkil qildik va biologiya o‘qituvchilari malaka oshirish kurslari oq‘uv jarayonida samarali foydalanilmoqda. Virtual laboratoriyanadan foydalanilgan mashg‘ulotlarda dars samaradorligini ta’minlash bilan birga, ularda fanni sevish, ijodkorlik, yangiliklar yaratish va o‘z bilimlarini oshirib borishga undaydi. Virtual laboratoriya mashg‘ulotlarini masofaviy ta’limda,



yotoqxonalarda foydalanish, qayta-qayta ko'rib o'rganish imkoniyatlari bor. Quyida 9-sinf uchun biologiyadan virtual laboratoriya ko'rinishi keltirildi:



Media ta'larning bir turi darslar jarayonida Internet tarmog'idan foydalanishdir.

G.Ergasheva tadqiqot ishida biologiyani o'qitishda Internetdan foydalanishni asosiy shakllarini:

1. Dars jarayonida yordamchi vosita sifatida.

2. Komp'yuter sinfida Internet-dars ko'rinishida.

3. Virtual maktablar-o'qituvchi va o'quvchilarning global tarmoq o'zaro bog'lanish imkoniyatini beruvchi axborot-kommunikatsiyalar majmui [5; 74- b.] sifatida izohlaydi:

Biologiyadan Internet tarmog'idan samarali foydalanish yo'lga quyilgan.

Internet tarmog'idan ta'limgan berish sohasida qo'llanishi axborot texnologiyalaridan foydalanishning barcha imkoniyatlarini to'liq ochib beradi, sinf-dars tizimida mavjud bo'lgan kamchiliklar bartaraf qilinadi, o'qituvchi bilan bo'lgan shaxsiy munosabatlar tekislanadi[1; 194- b.].

O'quvchilarni tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda birinchi navbatda o'quvchi uchun yangilikni kashf qilishi, muammoni o'rganish, o'quvchilarning hayotiy tajribasi va qiziqishlari bilan bog'liq bo'lishi zaruriy holatdir. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni faqat darslikdagi mavzu matni va uni mustahkamlovchi savollar bilan chegaralab qo'ymasdan ularga electron resursda keltirilgan mavzuga oid topshiriqlarni bajarish, internet tarmog'I asosida ishlash asnosida biologiyaga oid tayanch va xususiy kompetensiyalarini shakllanishiga e'tibor qaratishi lozim. Quyida 9-sinf biologiya mediata'l'm (internet) dan foydalanib, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi asosidagi olib boriladigan dars havola qilinadi.

Dars mavzusi. Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va xilma-xillik markazlari .

O'qituvchi o'quvchilarga yangi mavzuni qisqacha tushuntirib bergach, quyidagi didaktik topshiriqlar bo'yicha kichik guruhlarda yoki juftliklarda ishlarga yo'naltirilgan texnologik jarayonlarni amalga oshiradi. Buning uchun dastlab tanlangan mavzuga mos muammolarni aniqlash, muammoli topshiriqlarni belgilash lozim hamda o'quvchilarni tadqiqotlar asosida ishlashga jalb qilishdan iboratdir. Beriladigan topshiriqlarning didaktik, metodik va tashkiliy



jihatdan mukammal bo'lishi uchun barcha ilmiy-metodik talablarga rioya qilingan holda topshiriqlar yaratilgan.

1-topshiriq. Komp'yuterda madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlari nomi berilgan. Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va xilma-xillik markazlari xaritasini Internetdan toping. Bu markazlar qaysi mamlakatda joylashganligini Internetdan foydalanib to'g'ri joylashtiring. (Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va xilma-xillik markazlari xaritasi asosida) 1.Janubiy Osiyo toropik markazi. 2.Sharqiy Osiyo markazi. 3.Janubiy-g'arbiy Osiyo markazi. 4.O'rta er dengizi markazi. 5.Abissiya markazi. 6. Markazi Amerika. 7.Janubiy Amerika.

2-topshiriq. Komp'yuterda madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlaridan tarqalgan o'simliklar nomlari yozilgan. Geografiya fanidan olgan bilimlaringiz va xaritadan foydalaning. Katakchalarga markazlar nomi va shu markazdan kelib chiqqan o'simliklar nomini yozing. Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi markazlaridan tarqalgan o'simliklar nomlari: sholi, soya, tariq, karam, qand lavlagi, sabzovot ekinlari, bug'doy, ananas, dorivor o'simliklar, banan, kakao daraxti, loviya, zig'ir, g'o'za, tamaki, shakarqamish, suli, beda, makkajo'xori, kofe daraxti, yasmiq, oshqovoq, arpa, qalampir, kartoshka, dukkanlilar, sabzi, xina, zaytun, mevalar, kokain butasi, no'xat, oziqabop ekinlar, javdar, tok, meva va sabzovotlar [2; 124-b.].

3-topshiriq. Internetdan (Madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va xilma-xillik markazlari xaritasi asosida) Xaritadan madaniy o'simliklarning kelib chiqish markazlarini joylashgan mamlakatlarni topib ko'rsating. Botanika va geografiya fanlaridan bilimlaringiz asosida aynan shu o'simliklar ma'lum markazlardan kelib chiqish sabablarini tushuntiring.

Mazkur topshiriqlarni bajarish uchun o'quvchilar avvalo darslik mavzusi matni bilan tanishib chiqadi. Topshiriqlar komp'yuterda bajariladi. O'quvchilar mazkur topshiriqn ni bajarish jarayonida komp'yuter va internetdan mavzuni topib tanishadilar, to'g'ri javoblarni tanlaydilar, birinchi topshiriqning javobini o'qituvchi tayyorlagan sxemalarga belgilangan tartibda joylashtiradilar, ikkinchi topshiriqda Katakchalarga markazlar nomi va shu markazdan kelib chiqqan o'simliklar nomini yozib chiqadilar.

Uchinchi topshiriqni bajarishda botanika va geografiya fanlaridan bilimlari asosida aynan shu o'simliklar ma'lum markazlardan kelib chiqish sabablarini tushuntiradilar. Shunday qilib, erishilgan natijalar ancha yaxshilanadi va bu jarayon bolalar uchun juda yoqimli bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Aripov M. и др. Основы Интернет.–Т.: Universitet, 2002. – S. 194. 3. 2.Zikiryaev A, To'xtaev A, Azimov I, Sonin I. Biologiya. Sitologiya va genetika asoslari. 9-sinf uchun darslik.–Т.: Yangi yo'l poligraf servis, 2014.–B. 140.
- 3.Lutfullaev M.X. Mul'timediali darsliklar asosida ta'lim tizimi samaradorligini oshirish // Ta'lim va tarbiya. -Toshkent. 2003. –№ 3-4. –B. 55-57.
- 4.To'lqin Eshbek. Media ta'lim yangi ta'lim usuli sifatida. <http://uchildiz.uz>
- 5.Ergasheva G.S. Biologiya ta'limida interaktiv dasturiy vositalardan samarali foydalanishni takomillashtirish. Monografiya. –Т.: –Fan va texnologiya, 2017. – B. 220.
- 6.Mashg'ulotlarni virtual laboratoriya dasturlari yordamida tashkil etish. <http://www.uuooi.org/english/download.php?id=12540&sid=8396491e9f999a6f266e6d653836502f>



Muallif(lar) haqida ma'lumotlar

Muallifning F.I.Sh. (to'liq)	Xasanova Shoxista Boboxolovna, Pulotov Abduraim Muratovich
Sho'ba nomi	1. Kognitiv o'qitish: xususiyatlari, jarayon va amaliyot.
Maqolaning mavzusi	Kognitiv o'qitish jarayonida mediata'lim resurslaridan foydalanish tajribasidan
Lavozimi, ilmiy darajasi, unvoni	Kafedra mudiri, p.f.f.doktori(PhD). O'quv va ilmiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosari, pedagogika f.n. dotsent
Ish joyi	NavoiyVXTXQTMOHM, NavoiyVXTXQTMOHM,
Telefoni (kodi bilan)	93 463-54-46, 90 717-05-18
E-mail, telegram	90 717-05-18